

**ATOQLI MA'RIFATPARVAR ADIB VA DRAMATURG - ABDULLA AVLONIY
BUGUNIGI ZAMON NIGOHIDA.**

Tursunov Jamshid Abduraimovich

Termiz davlat universiteti Milliy libos va san'at fakulteti

Musiqa ta'limi kafedrasasi o'qituvchisi

Tursunov Xurshid Abduraimovich

Termiz davlat universiteti Milliy libos va san'at fakulteti

Musiqa ta'limi kafedrasasi o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada o'zbek adabiyotining yirik namoyondalaridan biri, Abdulla Avloniy ijodini o'rganish tom ma'noda har bir yosh avlodning vazifasidir. Darhaqiqat, uning asarlaridagi yetakchi pedagogik qarashlari va g'oyalarni o'rganish va tadqiq etish nafaqat dars jarayonining qizg'in o'tishini va balki ta'lim sifatini oshishiga ham imkon yaratadi.

Kalit so'zlar: Ikkinchi muallim, Tarix, Abdulla Avloniy, Turon teatr turuppassi, jadidchilik harakati, tabiya, ta'lim

Аннотация: В статье изучение творчества Абдуллы Авлони, одного из великих представителей узбекской литературы, является буквально долгом каждого молодого поколения. Ведь изучение и исследование передовых педагогических взглядов и идей в его трудах не только оживляет учебный процесс, но и дает возможность повысить качество образования.

Ключевые слова: Второй учитель, история, Абдулла Авлони, труппа театра «Турэн», движение джадидизм, природа, образование.

Annotation: In the article, the study of the work of Abdulla Avloni, one of the great representatives of Uzbek literature, is literally the duty of every young generation. After all, the study and research of advanced pedagogical views and ideas in his works not only enlivens the educational process, but also makes it possible to improve the quality of education.

Key words: Second teacher, history, Abdulla Avloni, Turan theater troupe, Jadidism movement, nature, education.

Kirish. Yangi davr o'zbek madaniyatining asoschilaridan biri bo'lgan, adabiyot, milliy teatr, dramaturgiya, milliy pedagogikasi va matbuotiga tamal toshini qo'ygan xalqimizning asl farzandi Abdulla Avloniy 20-yillarda nafaqat o'zbek xalqi maorifi va madaniyati taraqqiyotida ishtirok etgan, balki qo'shni afg'on xalqining ijtimoiy -siyosiy hayotida ham muayyan ro'l o'ynagan desak mubolag'a bo'lmaydi. Iste'dodli shoir va ma'rifatparvar

adibning o`z tarjimayi xolida yozishicha-12 yoshimdan o'qchi mahallasidagi madrasada dars o`qiy boshladm, 13 yoshimdan boshlab yoz kunlari mardikorlikda ishlab, oilamga yordam qilib, qish kunlari o`qir edim. 14 - yoshimdan boshlab o`sha zamonga muvofiq har xil she`rlar yoza boshladim Madrasani tugatib, maktabdorlik bilan shug`ullangan adib o`qish va o`qitish usulida yangi islohotni amalga oshiradi va shu jumladan, yangi tipdag'i maktab tashkil qilgan yosh pedagog o`quvchilarga sharq va g`arb tillarini o`qitish bilan bir qatorda ularga zamonaviy bilim berish kabi muhim ahamiyatga ega bo`lgan.

O`rta Osiyo ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayotida muhim o`rin tutgan jadidchilik harakati, adabiyoti va san'atining yirik namoyondalaridan biri bo`lmish Abdulla Avloniy milliy teatr va musiqa san'ati ravnaqi, xalqimizni ma'naviy qashshoqlikdan qutqarish, umumxalq madaniyatini yuksaltirish yo`lida faol ish olib borgansiyolardandir. Abdulla Avloniy (1878-1934) o`tgan asrning boshlarida uyg`onish davri arboblari singari shoir, dramaturg, aktyor, tarjimon, musiqa yig`uvchi, jurnalist, Evropa ilg`or fan-texnikasi, madaniyati tarafdori sifatida bo`y ko`rsatdi. Uning yozma dramaturgiya va teatr san'atiga qo`shgan hissasi ho`qida talaygina ilmiy-ommabop maqola va asarlar e'lon qilingan bo`lsa-da, ammo ijodkorning musika san'atiga munosabati to`g`risida juda kam yozilgan. Holbuki, u barcha jadid ziyolilari kabi bu sohaga ham munosib ulush qo`shgan. Uning ikki jildlik «Tanlangan asarlar»iga kiritilgan she`rlari, maqolalari, pesalari shunday demoqqa asos beradi. Adib asarlari uning badiiy-estetik qarashlari nihoyatda yuksak bo`lganini, xususan, yoshlikdan musiqa san'atiga ixlos qo`yganini va bu ixlos ilk bor teatrchilik harakatiga aralasha boshlagan kezlarida avj olganini, ayniqsa, «Turon» truppasida faoliyat ko`rsatgan davrida kuchayganini ko`rsatadi.

Muammoning o'rjanilganlik darjasи. Ma'lumki, XX asrning boshida Turkistonning katta shaharlariga turli millat teatr truppalari, xususan, tatar, arman, ozarbayjon, rus san'atkorlari ijodiy safarga kelishgan (bu o`sha davr matbuotida keng yoritilgan). Ularning ta'sirida Abdulla Avloniy o`zbek teatr san'atining poydevori bo`lgan Evropa tipidagi «Turon» truppasining (1914 yil) rahnamolaridan biriga aylandi. U teatr san'atining xalq ongiga ta'siri haqida «Teatr xususida munozara» maqolasida «Tiyotr har bir millatning yamon urf va odatlarini yo`q qilmak uchun, o`zini ahvolini tuzatmak uchun boqadurg`on oyinasidin» (Avloniy A. Tanlangan asarlar. 2-jildlik. 2 jild. T.: Ma'naviyat, 1998 .221-bet.), - deydi. Avloniy ilg`or turk va ozarbayjon, tatar dramaturgiyasi bilan tanishib, eng yaxshi asarlarni, jumladan Jalil Mamadqulizodanining «O`liklan», «Uy tarbiyasining bir shakli», «Jaholat» dramalarini o`zbekchaga

tarjima qildi, rejissyor va aktyor sifatida truppa faoliyatida fidokorona qatnashdi. 1914-1916 yillarda Toshkent va Farg`onada, chiqib turgan gazeta va jurnallarni varaqlab ko`rsangiz, truppa faoliyati, Avloniyning rejissyorlik va aktyorlik mahorati haqida yozilgan maroqli maqolalarni ko`plab uchratasiz. Dramatik sifatida "Turon" teatr turuppasini tashkil etadi va o`z asarlaridan tashqari qardosh xalqlar tillaridan tarjima qilingan bir qator dramatik asarlarni ham sahnalashtiradi .Jamiyat qoshida teatrda Abdulla avloniy truppassi sahnalashtirgan birinchi asar Behbudiyning "Padarkush" dramasi bo`ldi. Abdulla Avloniy respublikamiz ro`znama va aynomalarida qator maqolalar bilan faol qatnashadi. Shu jumladan, Abdulla Avloniy O`rta Osiyo ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayotida muhim o`rin tutgan, jadidchilik adabiyoti va sa`natining yirik namoyondalaridan biri. U milliy teatr va musiqa sa`natı ravnaqi, xalqimizning ma`naviyatini yuksaltirish yo`lida faol ish olib borgan siymolardandir. Abdulla Avloniy o`tgan asrning boshlarida uyg`onish davri arboblari singari shoir, dramaturg, aktyor, tarjimon, musiqa yig`uvchi, journalist, Evropa fan texnikasi, madaniyati tarafdori sifatida bo`y ko`rsatdi. Garchi uning yozgan dramatic asarlari va teatr sohasiga qo`shgan hissasi haqida ko`plab ilmiy-ommabop maqola va asarlar e`lon qilgan bo`lsada, ammo ijodkorning musiqa sa`natiga munosabati to`g`risida juda kam yozilgan. Holbuki, u barcha jadid ziyolilari kabi bu sohaga ham munosib ulush qo`shgan. Uning ikki jildlik Tanlangan asarlariga kiritilgan she`rlari, maqolalari, pesalari shunday demoqqa asos beradi. Asarlarida uning badiiy-estetik qarashlari nihoyatta yuksak bo`lganini, xususan, yoshlikdan musiqa sa`natiga ixlos qo`yganini va bu ixlos ilk bor teatrchilik harakatiga aralasha boshlaganida avj olganini va bu ayniqsa "Turon" truppasida faoliyat ko`rsatgan davrida kuchayganini ko`rsatadi. XX asrga kelib turli millat teatr truppaları, xususan, tatar, arman, ozarbayjon, rus sa`natkorları Turkistonning katta shaharlariga ijodiy safarga kelishgan. Ularning ta`sirida Abdulala Avloniy o`zbek teatr sa`natining poydevori bo`lgan Evropa tipidagi "Turon" trupassing rahnamolaridn biriga aylandi. 1914-1916-yillarda Toshkent va Farg`onada chiqib turgan gazeta va jurnallarni ko`zdan kechirib varoqlar ekanmiz, truppa faoliyati, Avloniyning rejissorlik va aktorlik mahorati haqida yozilgan maroqli maqolalarni ko`plab uchratamiz. Truppa repertuarining shakllanishida, musiqiy bezagida uning qo`li borligi yaqqol seziladi. Avloniy ana shu jarayonga qizg`in aralashgani sababli musiqanining inson, jamiyat va teatr sa`natidagi o`mi va ro`lini chuqur anglab yetdi. Abdulla Avloniy asrimiz boshlarida o`lkamizda avj olgan jadidchilik harakatining faol ishtirokchisidir. Ma`rifatparvar adib millat bolalarini savodli qilish, ulardan yetuk olimlar, mutaxassislar tayyorlash, Vatanni ozod ko`rish,

farovon etish yo`lida fidokorlik bilan mehnat qildi va shu maqsadda juda ko`p sohalarda faol ish olib bordi. 1909- yilda "Jamiyati xayriya" ni ochishi va mahalliy xalqning o`qib bilim olishi uchun pul yig`ib maktablarga tarqatilishi ham bu quyidagilarga yaqqol isbot bo`la oladi.

Mavzuning dolzarbligi. Abdulla Avloniy ko`p qirrali faoliyatida yoshlarga ta`lim-tarbiya berish masalasi muhim ahamiyat kasb etgani tog`risida ko`pgina qiziqarli ma`lumotlar bor. Bugungi davr nigohida Abdulla Avloniy adabiyot, dramaturgiya, matbuot, o`zbek milliy pedaoigikasiga tamal toshini qo`ygan serqirra ijodkor sifatida gavdalanadi. Avloniy inson ovozi - eng birinchi musiqa asbobi ekanligini va kadimgi kishilar «go`zallaridan, mahbubalaridan, borlaridan ajralganliklarin(i) boshqa o`rtoqlariga ham ma'lum qilar edilan», deb qadim zamonlarda ishq-muhabbat, his-tuyg`ular bilan bog`liqligini aytib, lirik musiqaning paydo bo`lish sabablarini ochadi. Shuningdek u jo`ngina bo`lsa-da, ilk musiqa cholg`u asboblarining yaratilishi haqida ham taxminlar qiladi: «Daraxtlarning shoxlariga ilinib qolgon hayvonlarning ichaklarin havoning ta'siri bilan ko`rib, shamolning ta'siri bilan «ting`ir-ting`in» qilgan tovushi ko`ngillariga o`turdi, xush keldi. O`zlarining ashula va qo`shtiqlariga jo`r-jo`ravozlik qilmoq uchun hayvon ichaklaridan «ton» yasab, musiqiy asboblarin yuzaga chiqardilan», deb musiqa san'ati o`z taraqqiyotida yangi bir bosqichiga o`tganini ta'kidlaydi. «Bu san'atlari avvallariga qaraganda eng nafis, eng muhim, eng ruhlik bir san'at bo`lib chiqdi. Lekin onlar bu san'atlarni tekshiruv va qayg`iruv orqasida chiqordilarda, bizlarga yodgor o`laroq qoldirib, o`zları ko`zdan nihon o`ldilan» deb, musiqani oddiy taqliddan ijod va chin badiiyot hosilasi darajasiga ko`tarilishini «nafis san'at» deb, uning yaratuvchilari-bastakorlar nom-nishonsiz o`tib ketganlarini uqtirmoqda. U davrni aniq ko`rsatishdan tiyilib, o`rta asrlar nafis san'atiga ishora qilar ekan, milliy musiqa bisotimizdagи o`adimiy «Sayra bulbul, sayra chinorni shoxi sinsun, yor ayrılamani dedi, ayrılib ko`ngli tinsun» deb boshlanuvchi xalq qo`shig`ini tilga oladi. Avloniy musiqa san'atining paydo bo`lishiga oid qisqagina maqolasida ko`pgina qiziqarli kuzatuvlarni keltiradi va asosan to`g`ri xulosalar chiqaradi. Musiqa ilk bor tabiatga oddiy taqliddan boshlanganligini, musiqa san'atining asosiy janrlarini, ya`ni mavsumiy, maishiy va lirik qo`shtiqlarning kelib chiqishini eslatib qo`yadi. Musiqaga yurakdan berilgani bois yozgan «Musiqi» sarlavhali she'rida musiqaning ta'sir kuch-qudratini batafsil ifodalaydi.Uning maorif va madaniyat sohasida ko`rsatgan tashabbuskorligi, nafaqat o`z davrining, balki bugungi kunning ham asosiy qahramomlaridan biriga aylangantirgan. Tarbiya- pedagogika, ya`ni bola tarbiyasining negizida biz Abdulla Avloniyning: tarbiya biz uchun yo hayot- yo mamot, yo najot-yo halokat, yo

saodat-yo falokat masalasidir. degan hikmatli so`zlarini kundalik shiorga aylantirganimiz va adib ta`kidlaganidek: Tarbiyani tug`ilgan kundan boshlamoq, vujudimizni quvvatlantirmoq va axloqimizni rivojlantirmoq lozim.

Bugungi kun pedagoglari Abdulla Avloniyning: "Fikr tarbiyasi eng kerakli, ko`p zamonlardan beri taqdir qilinib kelgan muqaddas bir vazifadur", degan fikrlariga tayanadi desak mubolag`a bo`lmaydi. Aytib o`tish joizki, Abdulla Avloniy nomidagi malaka oshirish institutining tashkil etilishi ham bugungi kunda xalq ta`limi rahbar va mutaxassis xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirishi ham serqirra ijodkor, adibimizning bugungi zamonaviy hayotimizdagi ta`siri va ahamiyati deyishimiz mumkin.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki. Toshkent Davlat Pedagogika universitetida Abdulla Avloniy nomidagi maxsus stipendiya va ko`krak nishonining ta`sis etilishi ham yoshtar o`rtasida ilmiy salohiyatini oshirish va ijodkorlik ruhidagi talabalarga ko`plab imkoniyatlar eshigini ochadi. Jadidchilik harakatining yorqin namoyondasi Abdulla Avloniy merosi nafaqat biz balki bizdan keying avlodlarga ham ibrat va ma`naviy maktab vazifasini bajaradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. N. Abdulahatov, O.Ahubakirova "Aliomalar to'g'risidagi asotirlar" Farg'ona 2012 y.
2. H.T.Omonovva boshqalar "Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat" . Darslik Toshkent - 2007.
3. M.Axmedjonov, B.Xo,jayev, Z.Hasanova. "Pedagogik mahorat". - Buxoro, 2008.
4. O.Suvonov, S.Astanova. "Pedagogik mahorat". -Guliston, 2010